

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

XORAZM VILOYATI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

S.Begliev, D.Xo'jayozova

**“Biologiya fanidan darslarni,
to'garak mashg'ulotlarini va fan kechalarini
o'tkazishda foydalaniladigan qiziqarli
ma'lumotlar” mavzusidagi**

USLUBIY KO'RSATMA

Urganch – 2013

“Biologiya fanidan darslarni, to‘g‘arak mashg‘ulotlarini va fan kechalarini o‘tkazishda foydalaniladigan qiziqarli ma‘lumotlar ” Umumta’lim maktablari biologiya fani o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiya. Xorazm VPKQTMOI.

Tuzuvchilar: **S.Begliyev** VPKQTMOI “Tabiiy va aniq fanlar ta’limi kafedrası” biologiya fani o‘qituvchisi.
D.Xo‘jayozova Urganch tumanidagi 27-sonli umumta’lim maktabi biologiya fani o‘qituvchisi

Taqrizchi: **S.Atadjanova** Urganch shahridagi 1-sonli umumta’lim maktabi biologiya fani o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy ko‘rsatma “Tabiiy va aniq fanlar talimi” kafedrasining ____ - sonli yig‘ilishida muhokama etildi va Xorazm VPKQTMOIning 2012 yil ____ -dekabrdagi № ____ - sonli ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlandi.

Kirish

Umumta'lim maktablari o'quvchilariga umumta'lim fanlaridan xususan biologiyadan bugungi kun talablariga mos har tomonlama mukammal bilim berishda o'qituvchilar oldida bir qator vazifalar turadi.

O'qituvchi har bir soat darsga tayyorgarlik ko'rishda darslikda berilgan ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan qo'shimcha adabiyotlarda keltirilgan muhim va qiziqarli ma'lumotlar bilan uni boyitishi, to'g'arak mashg'ulotlari va turli kechalarni tashkil etishda bilimlarni mustahkamlashga e'tibor qaratmog'i lozim.

Biologiya faniga oid qiziqarli ma'lumotlar o'quvchilarning fanga qiziqishlarini yanada orttirib boradi. Ana shularni hisobga olgan holda ushbu metodik tavsiyada o'qituvchilar foydalanishi uchun zarur ma'lumotlar berilgan.

Biologiya fanidan darslarni, to'g'arak mashg'ulotlarini va fan kechalarni o'tkazishda foydalaniladigan qiziqarli ma'lumotlar

Botanika fanidan qiziqarli ma'lumotlar

1. Dunyoda eng mevasi yirik daraxt Xind okeanining Seyshel orollarida o'sadigan Seyshel palmasidir. Bu palma gullagandan to mevasi pishguncha 10 yil vaqt o'tadi. Seyshel palmasi yong'oqlarining og'irligi 5-25 kg, ba'zan 30 kg gacha yetadi. Bu palma 30 yoshga yetgandan so'ng gullay boshlaydi. XVIII asrgacha Osiyo va Afrikaning Tinch okeani qirg'oq bo'yidagi odamlar okeandan oqib kelgan yong'oqlarni qayerdan kelishini bilmaganlar. Yong'oq ichida huddi sutga o'xshagan ichimlik bo'lib, undan mahalliy xalq quvvatlantiruvchi hamda zaharga qarshi vosita sifatida foydalanib kelishgan. Yong'oq po'stidan turli idishlar sifatida foydalanishadi. Seyshel palmasi barglari 2.5-3 metr uzunlikda bo'lib, undan tomlarga qoplama sifatida foydalanishadi.
2. Florida yarim orolida o'sadigan noyob daraxt sovun daraxtidir. Uning pishgan mevalari o'zidan ko'pik ajratadi. Mahalliy aholi uning mevasidan narsalarni yuvishda sovun o'rnida foydalanishadi.
3. Janubiy Amerikaning Paragvaydagi cho'llarida bargi, yog'ochi va gulida asal shiraga boy asalo'ti o'simligi o'sadi. Mahalliy xalq uning barglarini quritib, sevimli yaxna ichimliklari matega qo'shishadi. Uning bargi va yog'ochlaridagi shira shakarqamishnikidan 300 marta ortiqdir. Hozir bu yerdagi plantatsiyalarda asalo'ti o'simligini ko'paytirishmoqda.
4. Hindistonning nam tropik o'rmonlari va Seylon orolida dunyodagi eng yirik to'pgul Talmapo't palmasi o'sadi. Uning to'pgulining uzunligi 6-14 metrgacha, eni 12 metrgacha yetadi. Daraxt bo'yining balandligi 9-24 metrgacha bo'lib, uning yirik barglari uzunligi 7-8 metrgacha yetadi. Talmapo't palmasi 80 yilgacha umr ko'radi. Bu palma hayotida bir marta gullab mevalari pishgandan keyin bir yildan so'ng daraxt quriydi. Daraxt yog'ochdan kraxmal, urug'idan tugmalar, barglaridan arqonlar va tomlarni yopishga ishlatishadi.
5. Dengiz suv o'tlarining ranglari yashil, ko'k-yashil, tillorang, qizg'ish, qo'ng'ir ranglarda bo'lib, ularning bo'yi 60-70 metrgacha ba'zan 100 metrgacha yetadi. Hozir odamlar dengiz suv o'tlaridan 10% atrofida foydalanishmoqda.
6. Yer yuzidagi eng uzun daraxt Avstraliya Evkalipti bo'lib, uning bo'yi 150-155 metrgacha bo'ladi.
7. Kaliforniya Mamont daraxti va Sekvoyadendron daraxtlarining bo'yi 140-150 metrgacha o'sadi.
8. Evkaliptlarning dunyoda 300 ga yaqin turi ma'lum. Evkalipt daraxtining eniga yo'g'onligi 3 metrgacha yetadi.

9. Dunyodagi eng uzun o'simlik Hindistondagi Rotang palmasidir. Tropik o'rmonlarda o'sadigan Rotang palmasining ipsimon poyalari uzunligi 300-400 metrgacha yetadi. Uning poyasi o'rmonlardagi daraxtlarga arqonsimon tarzda ilashib o'sadi. Mahalliy xalq Rotang palmasi poyasidan savatlar to'qishadi, osma ko'priklar tayyorlashda arqon sifatida foydalanishadi.
10. Dunyoda eng tez o'sadigan o'simlik Bambuk hisoblanib, uning bo'yi 50 metrgacha yetadi. Osiyo va Afrika tropik o'rmonlaridagi bambuklarning bo'yi 2 oy davomida 30-40 metrgacha o'sadi. Bir sutkada bambuk bir metrgacha o'sib, u asosan ildizi orqali ko'payadi.
11. O'zbekistondagi eng bo'yi baland daraxt Mirzaterak bo'lib, uning bo'yi 20-25 metrgacha ba'zan 30 metrgacha yetadi.
12. Dunyodagi eng yo'g'on daraxtlardan biri Kaliforniyadagi doimiy yashil sekvoja daraxti hisoblanadi. Uning yo'g'onligining diametri 36 metrga teng bo'lib, bo'yi 142 metrga teng.
13. Meksikadagi Santa-mariya kiparisining eni 49 metrga yaqin bo'lib, u dunyodagi eng yo'g'on daraxt hisoblanadi. Bu daraxt aylanasi 27 ta odam qo'l ushlashsa uning atrofini egallashi mumkin.
14. Yapon kedr daraxtining eni 16 metrgacha, Afrikadagi adenium va baobab daraxtining eni esa 11 metrgacha bo'ladi.
15. O'zbekistondagi eng yo'g'on daraxtlar chinor va sadaqayrag'och hisoblanadi.
16. Dunyodagi eng uzoq umr ko'radigan daraxt Yaponiyaning Yakusxima orolida o'sadi. Ular ichidagi ba'zi kedr daraxtining yoshi 7000 yildan oshadi.
17. Kanar orollarida o'sadigan ajdar daraxti 5000-6000 yilgacha, Amerika sekvoyadendroni 4000-6000 yilgacha, baobab 4000-5000 yilgacha, archa va kashtan 2000 yilgacha, Sarv 1000 yilgacha, chinor 800 yilgacha, o'rik va yong'oq 70-100 yilgacha umr ko'radi.
18. Daraxtlar ichida eng sovuqqa chidamlisi Rossiyaning Sibir o'lkasidagi daur tilag'ochi hisoblanib, u 60-65 daragacha sovuqqa bardosh beradi.
19. Eng yengil yog'ochli daraxt Markaziy Amerikaning nam tropik o'rmonlarida o'sadigan balsa daraxtidir. Uning yog'ochi juda yengil bo'lib, 1 m³ yog'ochning og'irligi atiga 100-125 kg bo'ladi. Uning tanasi qattiq va egiluvchan bo'lganligi uchun kemasozlikda ishlatiladi. Urug'i xuddi g'o'za chigitiga o'xshab mayin tuk bilan qoplangan bo'ladi. Mahalliy aholi urug'dagi tuklardan yostiqlik va ko'rpalarni tayrlashda momiq par sifatida ishlatadi. U tez o'sishi va yog'ochida yillik xalqalari bo'lmasligi bilan boshqa daraxtlardan ajralib turadi.
20. Daraxtlar orasida yog'ochi eng og'iri ajdarho daraxti yog'ochi bo'lib, uning yog'ochi suvda xuddi toshdek cho'kadi.

21. Eng qattiq yog'ochli daraxt Shmidt qayini bo'lib, uni temir daraxt deb ham atashadi. U Rossiyaning uzoq sharqida o'sadi. Uning poyasi cho'yandan 1,5 barobar qattiqdir, suvda tosh kabi cho'kadi. Qurigan daraxt yog'ochini bolta kesmaydi o'q teshib o'tmaydi.
22. Eng yirik ochiladigan gul Sumatra orolida o'sadigan Rafleziya-Arnoldi o'simligi guli bo'lib, uning diametri 1 metr ga, og'irligi esa 10 kg yaqin bo'ladi. Bu o'simlik guli 1818 yilda J. Arnold tomonidan o'rganilgan. Bu o'simlik guli o'zidan atrofga juda badbo'y hid taratadi.
23. Eng kichik gul Vulfiya o'simligiga tegishli bo'lib, uning gulining kattaligi ignaning uchi bilan teng.
24. Eng yirik barg Janubiy Amerikaning Amazonka havzasidagi Rafiya palmasining bargidir. Bargning uzunligi 22 metr ga, eni esa 12 metr ga, qalinligi esa 1-2 sm ga yetadi. Mahalliy xalq bu barglardan uylarni tomini yopishda va o'rmonlarda yomg'irlardan himoya qilishda foydalanadi.
25. Madagaskar orolida o'sadigan sayyoh daraxti bargining uzunligi 12 m ga yetadi.
26. O'zbekistonda eng yirik bargli o'simliklar rovoch, ojud, kovrak hisoblanib ularning bargi 60-70 sm dan 1 metr gacha uzunlikda bo'ladi.
27. Janubiy Amerikadagi Amazonka havzasidagi suvlarda o'sadigan Viktoriya-Regiya o'simligi bargining diametri 2 metr gacha bo'lib, u ustida 35 kg gacha bo'lgan bolani bemalol ko'tara oladi.
28. Taratadigan hidi eng o'tkir gul Meksikadagi tun malikasi kaktusi bo'lib, uning hidi 1 km gacha atrofga taraladi. O'zbekistonda esa nastarin gulining hidi ancha o'tkir hisoblanadi.
29. Eng quvnoq daraxt Shimoliy Afrikada o'sadigan shayton daraxtidir. Kechasi daraxt o'zidan yorqin nur taratadi. Uning yorug'ida kechasi bemalol kitob o'qish mumkin. Daraxt yog'ochining tarkibida fosfor moddasi ko'p.
30. Panama kanali atrofida tunda yorug'lik taratuvchi daraxt o'sadi. Uning mevasi tarkibida yog' moddasi ko'p bulib, mahalliy aholi uning mevasidan sham o'rnida foydalanadi. Bir dona mevasi 3-5 soat gacha bemalol yonib turadi.
31. O'simliklarning yer osti organlari tarkibida 80-90% gacha suv, torvuz va qovun mevasi tarkibida 90-95% gacha suv, odam tanasining 65-70% suvdan iborat.
32. Fotosintez natijasida yashil o'simliklar atmosferaga 145 milliard tonnaga yaqin kislorod ajratadi. Buning natijasida 100 milliard tonnaga yaqin organik moddalar hosil bo'ladi.
33. Hozirgi paytda odamlar daraxtlar yog'ochidan 20 ming xilga yaqin har xil xom ashyolar va turli jihozlar tayyorlashadi.

34. Yashil daraxtzorlar yozgi issiqda o'zidan suv bug'latib turishi tufayli havodagi namlikni oshirib, haroratni ochiq joylardagiga nisbatan 10-12⁰ ga pasaytiradi
35. Havoda karbonat angidrid gazi miqdori ikki marta ko'paysa, yer shari iqlimi 2,9 gradusga ko'tariladi. Buning natijasida muzliklar erib, dunyo okeani sathi bir necha metr ga ko'tariladi
36. O'simliklardagi "Biologik soatlar"ni birinchi marotaba Frantsuz olimi De Meran 1929 yilda aniqlagan
37. Hujayra sitoplazmasini 75-80% ni suv tashkil etadi
38. Shokolad daraxti bu kakao daraxti bo'lib, uning vatani Janubiy Amerika hisoblanadi
39. O'zbekistonda o'sadigan 4500 turga yaqin o'simliklarning 1144 turi dorivor o'simlik hisoblanadi
40. So'nggi 100 yil davomida yer sharidagi o'rmonlarning 50% i odamlar tomonidan ayovsizlarcha kesib tashlandi

Hayvonot olami rekordchilari

1. Daryolardagi eng yirik baliq laqqa bo'lib, Oder daryosidan 400 kg, Dnestr daryosidan 320 kg, Dnepr daryosidan 250 kg gacha bo'lgan baliqlar ushlangan. Volga daryosidan esa 500 kg ga yaqin rus osyotr balig'i ovlangan. Qilich baliq 100-130 km tezlikda suzadi. Bu baliqning uzunligi 5 metrgacha, o'tkir qilich tumshug'ining uzunligi esa 1,5 metrgacha bo'ladi.
2. Akulalar soatiga 42 km tezlikda, forel 35 km tezlikda, cho'rtan 30 km, okun 17 km. karp esa 13 km tezlikda suzadi.
3. Baliqlar orasida quruqlikda suvsiz chidamliligi bo'yicha karas balig'iga teng keladigani yo'q. U 30-40 soatgacha suvsizlikka chidaydi. Laqqa baliq 24-30 soat, karp 12-15 soat, cho'rtan 7-12 soatgacha suvsizlikka chidaydi.
4. Eng katta timsox Afrikada bo'lib, uning uzunligi 7-8 metrgacha ba'zan 9 metrgacha yetadi. Timsoxlar odatda 10 tadan 100 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumlaridan 3-4 oyda uzunligi 24-36 sm bo'lgan yosh timsoxchalar chiqadi. Ular juda sekin o'sadi. 7 yoshgacha har yili 25 sm atrofida, keyin 5-10 sm atrofida o'sadi.
5. Hayvonlar ichida eng zahari kuchli mitti baqa bo'lib, u Janubiy Amerikaning chakalakzorlarida uchraydi. Janubiy Amerikaning jungli o'rmonlaridagi mahalliy hindular uni kokoi deb atashadi. Bitta baqadan olingan zahar 50 ta

yaguarni nobud qilishga yetadi. Kokoi mitti baqasining uzunligi 2-3 sm, og'irligi 1 gramga yaqin bo'ladi.

6. Hayvonlar ichida eng yirigi ko'k kit bo'lib, uning og'irligi 150 tonnagacha yetadi. 1926 yilda Shotlandiya janubida Atlanika okeanidan uzunligi 33 metr bo'lgan ko'k kit ovlangan. Ko'k kit yuragining og'irligi 500 kg ga yaqin bo'lib, u 8 tonna qonni tomirlarga haydaydi. Aorta qon tomiri kengligi 10 litrli chelak og'zi bilan teng. Ko'k kitlar sutkasiga 2 tonnagacha ovqat yeyishadi. Kitlar 2-3 yilda og'irligi 2-3 tonna, uzungi 6-9 metr bo'lgan bitta bola tug'adi. Bolasini sutkasiga 500-600 litr sut bilan boqadi. Kitlar suvda 10-15 km tezlikda suzadi va 37-40 yilgacha umr ko'radi.
7. Quriqlikning eng og'ir hayvon Afrika fili bo'lib, ularning og'irligi 5-6 tonnaga yetadi. Fillar kuniga 300 kg gacha ovqat yeydi va 200 litrgacha suv ichadi.
8. Quriqlikdagi eng bo'yi baland hayvon Jirafadir. Ularning bo'yi 4,8-5,8 metrgacha, og'irligi esa 750 kg gacha yetadi. Jirafalar soatiga 50 km tezlikda yugurib, 1,85 metr balandlikdagi to'siqdan bemalol sakrab o'ta oladi.
9. Eng sekin harakatlanadigan hayvon toshbaqa bo'lib, ular soatiga 50-100 metr yo'l bosadi. Ikki pallali mollyuskalar vakili baqachanoq soatiga atiga 20-30 sm yo'l bosib, eng sekin harakatlanadigan hayvon hisoblanadi.
10. Eng tez harakatlanadigan hayvon gepard bo'lib, u soatiga 110-140 km tezlikda yugura oladi. Hayvonlar shoxi sher soatiga 80 km, zebra 60-65 km, sayg'oq 70 km, tuyaqushlar 60-70 km tezlikda yugura oladi.
11. Lochinlar o'ljasi tomon soatiga 300 km tezlikda ucha oladi.
12. Hayvonlar ichida eng uzoqqa sakray oladigani qor barsidir. U o'ljasi tomon 15 metrgacha uzoqqa sakraydi. Kengurular 13-14 metrga, otlar 8 metrgacha, itlar 4,5 metrgacha, quyon esa 3 metrgacha uzoqqa sakraydi. Janubiy Amerika botqoqliklaridagi mitti baqalar o'z joyidan 3 metrgacha sakray oladi.
13. Eng uzoq muddat ovqat yemay, ko'p muddat uyquda bo'ladigan hayvon tipratikonlardir. Ular ovqat yemay 236 sutkagacha chidaydi. Qo'ng'ir ayiqlar esa 180 kungacha uxlaydi.
14. Kitsimon akulalar tishlari eng ko'pligi bilan rekordchi hisobladi. Ularda 15 mingga yaqin tishi bo'ladi. Kashalotda 60 ta, ayiq, bo'ri va tulkida 42 ta, tipratikonda 36 ta, yo'lbarsda 30 ta, quyonda 28 ta, filda 26 ta, olmaxonda 22 ta tishi bo'ladi.
15. Amerikadagi chumolixo'r hayvonining tili eng uzun bo'lib, tilining uzunligi 60 sm gacha yetadi.

16. Hayvonot olami ichida eng uzoq umr ko'ruvchi Galapagos orollaridagi og'irligi 200-300 kg bo'lgan toshbaqalar hisoblanadi. Ular 175-200 yilgacha yashaydi, to'tilar 90 yilgacha, fillar 85 yilgacha, otlar 62 yilgacha, zubr va begemot 50 yilgacha, zebra, tuya va shimpanze 40 yilgacha, sher 35 yil, ayiq va itlar 34 yil, echki 27 yil, mushuk 20 yil, bo'ri 16 yil, quyon 8 yilgacha umr ko'radi.
17. Planetamizda yashayotgan hayvonlar ichida eng qadimgisi cho'tka qanotli baliq Latimeriya hisoblanadi. Bu baliq qirilib ketgan deb uning faqat qazilma qoldiqlari qolgan deb hisoblanardi. 1938 yilning dekabr oyida Hind okeanining janubiy Afrika yaqinidagi qirg'oqlaridan dastlabki Latimeriya balig'i ushlendi. Keyingi latimeriya 15 yil keyin ushlendi. Hozirgacha 100 ga yaqin latimeriya balig'i ushlendi. Uning uzunligi 1,8 metrgacha 95 kg gacha yetadi, miyasi juda kichik bo'lib atigi 3 gr keladi.
18. Umurtqali hayvonlar ichida eng kichigi Filippin orollari atrofida yashaydigan Pandaka balig'i bo'lib, uning uzunligi 8-12 mm, og'irligi 15 ml gramgacha bo'ladi.
19. Planetamizning eng yirik balig'i kitsimon akula bo'lib, uzunligi 15-20 metrgacha, og'irligi esa 15-20 tonnagacha yetadi. Eng yirik daryo balig'i laqqa baliq bo'lib, og'irligi 400 kg gacha bo'ladi.
20. Eng tez suzadigan baliq qilich baliq bo'lib, u soatiga 110-130 km tezlikda suzadi. Akulalar 42 km tezlikda suza oladi.
21. Eng katta kaltakesak Kamodo orolaridagi echkiemar bo'lib uzunligi 5 metrgacha, og'irligi 200-300 kg ga yetadi.
22. Eng uzun ilon Amazonka havzasidagi Anakonda bo'lib, uzunligi 11 metru 43 sm gacha bo'lganlari uchragan.
23. Eng tez harakatlanadigan ilon Afrika Mamba iloni bo'lib, uzunligi 4 metrgacha bo'lgan ilon soatiga 11,3 km tezlikda harakatlanadi.
24. Ilonlar ichida eng zaharlisi Kobra bo'lib, u chaqqanda tez yordam ko'rsatilmasa odam 15-20 minutda, fil esa 3-4 soatda nobud bo'ladi. Mamba iloni zaharlilik bo'yicha 2-o'rinda turadi.
25. Kengurular xaltali hayvon bo'lib, bo'yi 2-2,5 metrga, og'irligi esa 80 kg gacha yetadi. Kengurular asosan bitta ba'zan 2-3 ta bola tug'adi. Bolasi tug'ilganda 2-3 sm bo'lib, uni xaltasida 235 kungacha olib yuradi.
26. Maymunlar ichida eng kattasi Gorilla bo'lib, uning og'irligi 420 kg gacha bo'yi esa 2 metru 18 sm gacha bo'ladi.
27. Hayvonlar ichida eng ovozi o'tkiri timsohlardir, 2-o'rinda Begimot, 3- o'rinda hayvonlar shohi sherlar turadi.

28. Qushlar ichida eng yirigi Amerika Kondor qushlari bo'lib, ular qanotini yoyganda 3 metr gacha yetadi.
29. Eng kichik qush Shimoliy Amerikadagi Kalibri va Nektarchi qushlari bo'lib, ularning uzunligi bor-yo'g'i 2-3 sm gacha bo'ladi.
30. Hashorotlar ichida eng hidni yaxshi sezadigan ayrim kapalaklar bo'lib, erkaklari urg'ochisi hidini 11 km dan farqlay oladi.
31. Kapalaklar ta'mni eng yaxshi farqlaydiganlar hashorotlar hisoblanib, ular suvdan 0,0008 foizli shakar eritmasini farqlay olishadi.
32. Bo'rsiq bir sutkada 500 taga yaqin may qo'ng'izi lichinkasini yeb nobud qiladi
33. Hozirgi kungacha dunyoda qushlarning 140 ga yaqin turi butunlay yo'q bo'lib ketgan. Oxirgi sayyor kabutar Amerika qit'asidagi Sintsinati qo'riqxonasida 1914 yilda nobud bo'lgan.
34. Ko'rshapalaklarning eshitish organlari sezgirligi odamnikidan 100 marotaba yuqori turadi
35. Uy pashshasining ko'zida 4000 ga yaqin fasetkalar bo'ladi
36. Qurbaqa ko'zida bir millionga yaqin yorug'likni sezuvchi hujayralar bo'ladi. Ularning ko'zi faqat harakatlanayotgan narsalarni ilg'ashga moslashgan

Tarixiy qiziqarli ma'lumotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotiga ko'ra yer sharida yetishtiriladigan oziq-ovqat ekinlari hosildorligi zararkunanda hashorotlar va turli kasalliklar natijasida 20-25% ga kamayadi
2. Amerikadan Yevropaga uchgan reaktiv samolyot 8 soat davomida 50-75 tonna kislorodni sarflaydi. Shuncha kislorodni 8 soatda 25-50 ming gektar yerdagi o'rmonzor ajratadi
3. Odamlardagi rak kasaligining 50 % i atmosfera havosidagi zaharli gazlarning ko'payib borishidan kelib chiqmoqda
4. Angliyada eng uzoq umr ko'rgan odam Tomas Perr bo'lib, u 152 yil yashagan. Uning odatdagi ovqati eskirgan pishloq, sut, zardob va suvi qochgan non hamda ko'katlar bo'lgan
5. Ozaybarjonda eng uzoq umr ko'rgan kishi Sherali Muslimov bo'lib, u 170 yil hayot kechirgan. U umr bo'yi jismoniy mehnat bilan shug'ullanib, juda

harakatchan edi. Doimiy ovqati esa sut mahsulotlari, sabzavot, mevalar va har xil milliy taomlar bo'lgan

6. «Qadimgi greklarning ro'zg'or kitobi»da olimpiya atletlari jismonan baquvvat, kuchli bo'lishi ularning ovqatlanishi bilan bog'liq deyilgan. Ularning ovqati yangi pishloq, xurmo qokisi va so'k oshidan iborat, deb yozilgan
7. 2002 yili Yaponiya va Koreyada o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionati davrida magazinlarda pishloq savdosi ancha ko'tarilgan. Yevropalik futbolchilar baquvvat, kuchli bo'lishi uchun pishloq mahsulotlarini ko'p tanovul qiladilar
8. Greklarning mashhur hakimi, tibbiyot otasi Gippokrat «Parhez to'g'risida» degan to'plamida pishloq haqida bunday ta'rif beradi. «Pishloq kuchli bo'ladi, vujudni isitib, unga oziq beradi. Kuchliligining sababi shuki, bunyod qilishga yaqin turadi, oziqligining sababi shuki, u eng maqbul sut qismining qoldig'idir, vujudni isitishiga sabab shuki, yog'i ko'p» deb yozgan edi
9. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarida sutning shifobaxshlik xususiyatlarini tilga olib, sut va sut mahsulotlari bolalar va keksalar uchun eng foydali ovqat deb aytgan
10. Baliq yog'i va baliq go'shti inson organizmi uchun juda foydali hisoblanadi. Uning tarkibida oqsillar, yog'lar, uglevodlar va foydali vitaminlar mavjuddir. Grenlandiya orolida yashaydigan eskimoslarning asosiy ozig'i baliq hisoblanadi. Ularda yurak va qon-tomir kasalliklari umuman uchramas ekan
11. Aristotel asal sog'likni mustahkamlaydi va uzoq umr ko'rishga yordam beradi degan. Abu Ali ibn Sino «Navqironlikni saqlab qolishni istasang albatta asal yegin» deganlar
12. Sut tarkibida hayot uchun zarur 20 dan ortiq vitamin turlari aniqlangan
13. Sabzavot va mevalar vitaminlarga boy bo'lib, ular tarkibida A, B₁, B₂, B₃, B₆, PP, P va C vitaminlar ko'p bo'ladi
14. Qadimgi rimda ko'pgina kasalliklar faqat karam bilan davolaganlar. Ular turp, qovoq, lavlagi, sabzi, rovoch va sitrus ekinlar mevalaridan kasalliklarni davolashda foydalanishgan
15. Mahsulotlar qovurib pishirilganda va qaynatilganda tarkibidagi vitaminlar 10% dan 70% gacha kamayadi

- 16.Kumush idishda saqlangan suv uzoq vaqt toza va yaxshi saqlanadi. Kumush suvdagi mikroorganizmlarni yo‘qotib yuborish xossasiga ega. Ilgarigi vaqtda yangi qazilgan quduqlarga kumush tanga tashlash odati shundan kelib chiqqan bo‘lsa kerak.
- 17.Eron shohi Kir ichimlik suvini faqat kumush idishlarda saqlashga ruxsat bergan
- 18.Dunyodagi eng yirik olmos 3106 karatli “Kullinan” olmosi bo‘lib, u 1905 yil Janubiy Afrikadan topilgan
- 19.Angliyalik kishilar choyni ko‘p ichish bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Har bir kishiga yiliga 5 kg quruq choy to‘g‘ri keladi
- 20.Hujayra yadrosi tarkibidagi yadrochani birinchi marta 1938 yilda Mattias Shleyden aniqlagan
- 21.1955 yilda Palada elektron mikroskopda hujayra organoidi bo‘lgan ribasomani kashf etdi
- 22.“Baxtu saodatga eltuvchi birinchi zinapoya -salomatlikdir” degan edi qadimgi yunon faylasufi Suqrot
- 23.“Uzoq umr ko‘rish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, balki organizmni muntazam ravishda chiniqtirish, vaqtida ovqatlanish va ayniqsa bekordan-bekorga asabiy bo‘lmashlik darkor” degan edi alloma Ibn Sino
- 24.Eronda Kelyusa qishlog‘ida yashagan Seid Ali eng uzoq umr ko‘rgan inson bo‘lib, u 195 yil umr ko‘rgan
- 25.Vengriyalik er-xotinlar Djon 172 yil, Sarra esa 164 yil umr ko‘rgan.
- 26.Ozarbayjonlik Sherali Muslimov 170 yil, Shvetsiyalik Nils Paulsen 160 yil umr ko‘rgan
- 27.Xitoy devorining uzunligi 5030 km ga teng bo‘lib, uning balandligi 6,6 metr, poydevori 6,5 metr, devorning yuqori qismi esa 5 metr kenglikka ega
- 28.Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston milliy kutubxonasida 10 yarim milliondan ortiq kitob saqlanmoqda. Ularning eng qadimgisi X-XI asrlarga oid kitoblardir
- 29.Buyuk alloma Ibn Sino bahor haqida “Bahor inson umrining eng yaxshi va shifobaxsh fasli hisoblanadi” deganlar
- 30.Qadimgi Rim yozuvchisi va olimi Plineyning yozishicha yunonlar ildizmevalarga allohida e‘tibor bilan qarashgan. Yunon ehromlarida oltindan ishlangan turp, kumushdan ishlangan lavlagi va qalayidan ishlangan sholg‘om tasvirlangan buyumlar saqlanadi

31. Qadimgi yunonlar karamni iloxiy o'simlik deb atashib, mashhur Pifagor karamni odamga doimo tetiklik, quvnoqlik va osoyishtalik bag'ishlovchi sabzavot deb ta'rif bergan
32. Odam 70 yil umr ko'rsa umri davomida 60 tonnaga yaqin suv, 11 tonnaga yaqin uglevod, 2,5 tonna oqsil, 2 tonnadan ortiq yog' iste'mol qilishi hisoblab chiqilgan
33. Sut oqsilining biologik qimmati yuqori bo'lib, sut tarkibida albumin, kazein va globulin oqsillari ko'p uchraydi. Sut tarkibida 25-28% oqsil, 3,5-3,9% yog', 4-4,7% qand, 85-87% suv, 20 ga yaqin vitamin turlari uchraydi
34. Avstraliya va yangi Zellandiyada ajoyib qiziq musobaqa o'tkaziladi. Bu 9 soat mobaynida ko'proq qo'y junini olish musobaqasidir. Hozirgacha o'tkazilgan musobaqalarda Yangi Zellandiyalik K. Bosher g'olib chiqdi. U 9 soat mobaynida 565 ta qo'y junini olib yangi record o'rnatdi. Ilgarigi record Yangi Zellandiyalik G. Bouen ga tegishli bo'lib u 9 soatda 463 ta qo'y junini olgan.

OQSILLI MAHSULOTLAR

Odam organizmida oqsilli mahsulotlarning o'rni benihoya kattadir. SHuning uchun odam hayoti davomida o'zining oksilga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirishi zarurdir.

Odam uchun hayvon va o'simlik oqsillari yetarli miqdorda bo'lishi kerak. Odamning oqsilga bo'lgan sutkalik ehtiyojining 50-60%ni hayvon oqsili hisobiga qoplashi kerak.

Bolalarning o'sishi va rivojlanishi uchun ular ovqati tarkibida hayvon oqsillari 80-90%, katta yoshdagilar ovqatida esa 50% hayvon, 50% o'simlik oqsili bo'lishi kerak.

Oqsilga boy mahsulotlar quyidagilar hisoblanadi va ularda oqsillar quyidagi miqdorda bo'ladi. Sutda 25-28%, pishloqda 20-25%, go'shtda 18%, parranda go'shtida 18%, tovuq tuxumida 12,7%, bapiq ikrasida 25-30%, baliq go'shtida 12,7%, kolbasa mahsulotlarida 16 %, sariyogda 1-2%, muzqaymoqda 3,9 %, bug'doy nonda 7-8 %, yeryong'oqda 23-29%, loviya, mosh, no'xat, soyada 23-36%, qo'ziqorinda 1,9-36,7%, dengiz suv o'tlarida 1-1,5%, sholida 8%, kartoshkada 2-2,5% oqsil bo'ladi. Organizmga tushgan sut oqsillari 100% gacha, baliq oqsillari 94% gacha hazm bo'lib o'zlashtiriladi.

UGLEVODLARGA BOY MAHSULOTLAR

Uglevodlar asosan o'simlik mahsulotlari tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi. Odamning sutkalik ovqatidagi kaloriyaning 56 % uglevodlar hisobiga qoplanadi. Katta yoshdagi odam bir kunda 350-450 gramm uglevod iste'mol qilishi kerak. Asalda 80,3%, qandda 98,85 %, sigir sutida 4,7 %, bug'doy nonida 49 %, javdar nonida 44,4 %, bug'doy donida 66-75 %, dukkakli o'simliklarda 24-55 % gacha, go'shtda 1-2 %, jigarda 5%, qo'ziqorinda 1,6-34,5 % gacha, yeryong'oqda 12,5 %, pishloqda 1-1,3 %, sholi va makkajo'xorida 70-80 % gacha, shakarqamish poyasida 12 %, qand lavlagida

20-21 %, qovun mevasida 17 % gacha uglevod bo'ladi. Uglevodlar odamning asosiy energiya manbai bo'lib muskullarning harakati uglevodlardan ajralgan energiya hisobiga qondiriladi.

YOG'LARGA BOY MAHSULOTLAR

Inson iste'mol qiladigan oziq-ovqatlar tarkibida ma'lum darajada yog' moddalari bo'ladi. Odam yog'larga bo'lgan kundalik extiyojini o'simlik va hayvon yog'lari iste'mol qilish hisobiga qondiradi. Hayvon yog'lariga qo'y, mol, cho'chqa, dengiz hayvonlari yog'lari, sariyog', baliq yog'i, tuxum sarigi tarkibidagi yog'lar kiradi. Baliq yog'i yuksak biologik qimmatga ega bo'lib, uning tarkibi A va D vitaminlarga boy bo'ladi. Sariyog'da yog' miqdori 50-60%, pishloqda 23%, parranda go'shtida 15,9 %, tovuq tuxumida 11,5 %, baliq ikrasida 1,5-16% gacha, kolbasa mahsulotlarida 30,7 %, go'shtda yog'liligiga qarab 4-30 % gacha yog' bo'ladi. O'simlik moylari to'yinmagan kislotalar bo'lib, ular xolisterin moddasini eritadi va organizmdan chiqib ketishiga sharoit yaratadi. O'simlik moylari paxta chigiti, kungaboqar, zig'ir, kunjut, zaytun, no'xat, yeryong'oq urug'idan ajratib olinadi. Yoshi ulg'aygan kishilar asosan o'simlik moylaridan iste'mol qilishlari lozim. Ulardagi foydali moddalar ateroskleroz kasalligining oldini olishda muhim o'rin tutadi. O'simlik urug'larida yog' miqdori turli miqdorda bo'ladi. Kungaboqarda 55%, yeryong'oqda 48 %, soyada 18 %, va kunjutda 42-48 % gacha yog' bo'ladi. Kakao daraxti urug'ida 45-55 %, mry bo'lib u oziq-ovqat sifatida, parfyumeriya hamda tibbiyotda ishlatiladi, kunjarasidan esa shokolad tayyorlanadi. Kokos palmasi to'qimasi tarkibida 60-70 % moy bo'lib, undan sham va sovun tayyorlashda foydalaniladi. Yaponiya va Xitoyda o'sadigan tungo daraxti yong'og'i mag'zida 60-66 % zaharli moy bo'lib undan lak va alif tayyorlashda foydalaniladi. Ba'zi o'simlik moylari aviatsiya va kemalarning yog'och qismlarini bo'yashda va oynaga yoziladigan siyoxlar tayyorlashda ishlatiladi.

ENG ZARUR VITAMINLAR HAQIDA MA'LUMOTLAR JADVALI

№	Vitamin turi	Bir kunlik ehtiyoj	Vitaminli mahsulotlar
1	Vitamin A retinol	1,5mg	Baliq yog'I, sariyog', tuxum sarig'i, jigar, sabzi, qizil qalampir, o'rik
2	Vitamin B ₁ , tiamin	1,5-2 mg	Gurunch po'sti, bug'doy non, loviya, no'xat, tuxum sarigi, yong'oq, mol jigari
3	Vitamin B ₂ riboflavin	2,5-3,6 mg	Jigar, buyrak, tuxum sarigi, sut mahsulotlari loviya, no'xat
4	Vitamin B ₃ pantotenat	10-12 mg	Jigar, tuxum, baliq, kepak, go'sht

5	Vitamin C askorbin kislota	70-100 mg	Na'matak, qora smorodina, ko'katlar, ko'kpiyoz, kashnich, ukrop, karam, limon, apelsin, mandarin
6	Vitamin D kalsiyferol	13-25 mkg	Baliq yog'i, tuxum sarigi, sariyog', sut mahsulotlari
7	Vitamin E tokoferol	01-05mg	O'simlik urug'i va moylarida, chakanda mevasida, yeryongoq, zig'ir yog'ida
8	Vitamin PP nikotin kislota	15-25 mg	Yeryong'oqda, achitqida, qoramol jigari va buyragida, baliqda, ko'kno'xatda, buzoq go'shtida, loviyada
9	Vitamin K filloxinon	2 mg	O'simlik mahsulotlarida ko'k pomidorda, karam, sabzida, ismaloqda, petrushka, beda bargi, qichitqi o't bargida, dengiz suv o'tlarida va hayvon jigarida

**ENG MUHIM MAHSULOTLAR TARKIBIDA UCHRAYDIGAN HAYOT UCHUN
ENG ZARUR MODDALAR**

№	Mahsulot nomi	Oqsillar %	Yog'lar %	Uglevod-lar %	Vita-minlar	Mineral tuzlar
1	Sut	25-28	3,9	4,7	C,A	Ag, CO, Ca, R
2	Go'sht	18	4-30	1-2	B ₅ A,B ₁	P, K, Fe, Na
3	Parranda go'shti	18	15,9	0,29	B ₁ , B ₆ , B ₁₂	K, Ca, Na, Fe
4	Tovuq tuxumi	12,7	11,5	0,7	A, D, B ₁₂ B ₁₅	Ca, P, Fe
5	Baliq go'shti	12,7	0,3-30	0,1	A, D, B ₃	P
6	Pishloq	20-25	22-30	1-1,3	A, B ₂	Ca, P
7	Bug'doy non	7-8	0,9	49	B ₁ , B ₂ , B ₅	Fe, K, P
8	Loviya, mosh, no'xat	23-36	2-10	24-30	B ₁ , PP,	Fe, Ca
9	Yer- yong'oq	23-29	48	12,5	C, B ₂	Fe, Ca
10	Qo'ziqorin	1,9-36,7	02-2,7	1,6-34,5	C, B ₁ B ₁₂	Na, Fe, Ca

11	Baliq ikrasi	25-30	1,5-16	1,5	B ₁ , B ₂	Na,P, I
12	Muz qaymoq	3,9	11,6	5,2	C, A, B ₁ , E	Ca, P
13	Kolbasa mahsulotlari	16,6	30,7	0,42	A, B ₁	Na
14	Dengiz suv o'tlari	1-1,5	1-3	0,6-5,3	A, D, E, K, B ₁ , C	Fe, P, K, I, Na
15	Sariyog'	1-2	50-60	0,9	B ₁ , C	Ca, R

ZAKOVAT INTELLEKTUAL O'YINI SAVOLLARI

Biologiya fanida o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda biologiya fanidan zakovat intellektual o'yinini xam o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Bunday usul bilan nafaqat o'quvchining bilimi sinaladi, balki o'quvchilarda darslikdan boshqa kitoblarni xam o'qib izlanishga, ularning mustaqil bilim olishiga imkon beradi.

1. Insonda 2 ta ko'z mavjud, darvoqe hayvonlarda xam 2 ta ko'z bor-ku, lekin 5 ta ko'zli mavjudot bor. 2 ta ko'zi boshining yon tomonida 3 tasi naqd boshining tepasida joylashgan. Bu ko'zimizga ko'rinadigan jonzotning nomi nima ??
2. Qadimda Greklar va Rimliklar lavr daraxtini juda mo'tabar va oliyximmat daraxt deb bilishgan. Imperatorlar gulchambarni, ya'ni lavr daraxtini nafaqat muqaddas deb taqishgan, u daraxtning ajoyib ximoya xislati uchun xam uni boshlariga kiyib yurishgan. Bu qanday xislat ?
3. Biz xammamiz quloqni ikki chekkada bo'lishiga ko'nikib qolganmiz. Insonlar mayli-yu hayvonlarning xam aksariyatida quloq kallaning ikki chekkasida joylashgan ekan. Lekin ayrim qurt-qumursqa xashorotlarda quloq turli yerlarda joylashgan. Quloq pardasi oyog'ida joylashgan xashorot xam bor. U qaysi jonzot ?
4. O'sha hududda aham yoz juda issiq kelishi bois, deyarli xar bir xonadon oldida hovuz va uning atrofida bir daraxt o'stirilgan. Bu daraxt boshqa hududlarda deyarli uchramaydi. U toza kislorod ishlab chiqarish bilan birga havoni salqinlashtirish xususiyatiga ega. Ushbu daraxt qaysi viloyatda o'sadi va nomi nima ?

5. Dunyo ajoyibotlaridan biri qushlar hisoblanadi. Tabiat ularni har xil yaratgan. Katta – kichik, uchadigan, suzadigan yuradigan va h.z. ular loy,tosh,suv,ko`kat,don,go`sht,sut va baliqlarni xam xazm qilaveradi. Ammo bitta qush laxcha cho`g`ni xam yeb xech narsa bo`lmagandek ketaveradi, bu qushning nomi nima ?
6. .Insoniyat o`z aqli va tafakkuri bilan juda katta mo`jizalar kashf etgan. Konservlash ana shunday mo`jizalardan biridir. Siz bankalarga konservalangan gullarni eshitganmish ? ilk bor qaysi davlatda bu yangilik amalga oshirilgan.
7. Tabiatning ishi qiziq . xar bir ko`karib turgan o`simlik,daraxt suv bilan tirik. Ammo shunday o`simlik borki 40 yil qurutib osib qo`yib,yana qayta ekilsa, suv quyib parvarish etilsa, ko`karib ketadi.bu o`simlik qaysi ?
8. Bir qariya baliq do`koniga kelib sotuvchi qizga: “Qani, menga zog`ara baliqning semiz-semiz, erkagidan tort”, deydi. Qiz nima qilishini bilmay hayron bo`lib turadi.nega qiz baliqlarni tortmay hayron bo`lib qoladi ?
9. 9.Mamlakat hududidagi tog`lar, o`rmon, adir va daryolar,yaylovlari yovvoyi hayvonlar o`sha davlatga qarashlidi. Lekin qushlarchi ? angliya qirolichasi bir qushni o`ziniki deb bilgan. U qush qaysi qush ?
- 10.Bir asarda ajdodlarimiz tabiatni asrash uchun o`ziga xos tartib-intizom o`rnatgan. Xususan , yerni iflos qilgan , ekinni payxon qilgan kishiga 400 qamchi urilib, 10000 dona ko`chat ekish yoki 1000 ta zararli suv qo`ng`iziini o`ldirishga buyurgan. Bunday raqam va faktlar qaysi asarda aks etgan ?
- 11.Qurbaqaning qanday shifobaxsh xususiyati bor ? ko`pchilik mensimaydigan bu jonzotga Fransiyada haykal o`rnatilgan bo`lib, uning bir a`zosini bod kasaliga davo qilib ishlatishadi. Qurbaqaning qaysi a`zosi bod kasaliga davo ?
- 12.O`zi dumli olmaxonni dumi daraxtdan sakrashga stabilizator vazifasini bajaradi. Xo`sh tulkida dum nima vazifani bajaradi ?
- 13.Aqshdagi Chikagoga nom qo`yilishiga sabab bo`lgan sabzavotning nomini ayting ?
- 14.Tovuq,g`oz,o`rdak parranda. Asalarichi ? u qanday jonzot turiga kiradi?
- 15.U XIX asrning o`rtalarida zoolog PITER SKATT tomonidan fanga kiritilgandi. Albatta, butaklif zoologiya,biologiya,botanika fanlari rivojlanishiga xissa qo`shdi. Bu qanday taklif edi ?
- 16.Undan so`rashdi.”Qayerliksan “? – meni Eronlik yoki Xindistonlik deyishadi, lekin men Turkistonlikman. Hindistonga meni mirzo Bobur buyrug`I bilan olib borishgan. Yana aytishadiki men Rim imperatori Klavdiyni o`ldirgan emishman. Lekin ini mayor o`ldirgan , deb javob berdi. U nima edi ?

17.15 asr yashagan sayyoh va davlat arbobi Abdurazzoq Samarqandiy Xindiston safaridan qaytgach, shunday misralarni bitgan: u bir parrandaki, qanotlar yordamida uchadi. Bir yuruvchidirki, oyoq yordamisiz, o`qdek yuguradi. Dunyoga qanday kelsa, shunday ketadi. Barvasta kelib, barvasta ketadi. Ozmaydi, to`lishmaydi. Bir necha avlodning egasi, lekin farzand ko`rmaydi. Birinchi uchrashuvimdayoq undan xuzur qildim, yana bir bor albatta roxatlanishimni eslab mamnun bo`ldim. U nima xaqida gapiryapti ?

18. U dunyoda eng xushxo`r xisoblanadi, qishloq xo`jaligi xalqaro bozoriga eng xaridorgir xisoblanadi. U qanday meva ?

19. U 1997 – yilda butun jaxonga mashxur bo`lib ketdi. Uning nomi grekchada “shoxcha”, “yangi barg” deb tarjima qilinadi. Ayrimlar uni insoniyatga yangi imkoniyat beradi desa, ayrimlar yaxshilik keltirmaydi deb fikr bildirishadi. Uning ismi nima ?

Zakovat intelektual o`yini javoblari:

1. asalari

2. bir necha asrlik tadqiqotlar shuni ko`rsatganki, o`rmonga tushadigan yashinlar lavr daraxtini urmas ekan. Ana shu xislati uchun xam imperatorlar uni boshlariga gulchambar qilib taqib yurishgan .

3. chigirtka

4. bu daraxt xorazmda o`stiriladi. Bu daraxtning nomi – Gujum.

5. bu qush afrikada yashaydi, qaynoq tosh va laxcha va cho`glarni yeb xazm qilib yuboradigan eng katta qush-tuyaqushdir.

6. o`sha davlat do`konlarida konservalangan gullar sotiladi. Uni sotib olib, oftobga biroz qo`yib suv purkalsa bas, yangi uzilgan gulday ko`rinish kasb etadi. Gullarni konservalash birinchi Yaponiyaba amalgam oshirilgan.

7. bu o`simlik – ajriq

8. zog`ara baliqning erkagi bo`lmaydi

9. oqqush

10. bu avesto asaridir

11. qurbaqaning shilimshiq moddasi-bodni davolaydi

12. tulkinining dumi rul vazifasini bajaradi

13. yevropaliklar qaysidir sabzavotni yeyayotgan xindulardan bu joining nomini so`raydi. xindular yeyayotgan taomni so`rayapti deb Chikago-piyoz deb javob berishgan

14. darranda

15. qizil kitob

16. tut daraxtining ildizi 20 metrgacha atrofda namni o`ziga oladi. Ushbu xususiyati uchun binolar atrofida tut ekilgan

17. kartoshkadan kraxmal, kraxmaldan etil spirit, etil spirtidan butadiyen, ya`ni suniy kauchik boshlang`ich zvenosiga yaqinlanib uyog`I sizga ma`lum

18. qovun

19. xazrat samarqandiy baxaybat kemalarni nazarda tutgan

HASHAROTLAR HAYOTIDAN 25 AJABTOVUR FAKT

Buyuk Britaniyada BBC telekanali Hasharotlarga bag'ishlangan, Life in the undergrowth («Butalardagi hayot») deb nomlangan yangi ilmiy ommabop serialni namoyish qilishni boshladi. Eng zamonaviy telekameralar yordamida mualliflar shu paytgacha inson nigohi ilg'ay olmagan saʼnalarni suratga olishga muvaffaq bo'lishganki, ularni tomosha qilar ekan, kishi o'zini boshqa olamga tushib qolgandek his qiladi.

Yangi hujjatli serial haqida xabar berar ekan, Britaniyaning The Mirror gazetasi Hasharotlar hayotidan 25 ajabtovur fakti e'lon qildi:

1. Hasharotlar – bundan 400 mln. yil ilgari Erda paydo bo'lgan ilk jonli mavjudotlardir. O'shandan buyon ular beshta ommaviy halokatlarni boshdan kechirishdi va tiranozavrlardan ko'ra yashovchanroq ekanliklari ma'lum bo'ldi.
2. Hozir dunyoda asalarilarning 20 mingga yaqin turi mavjud. 500 gramm asal yig'ish uchun bitta ari uyasidan gulgacha 10 mln. marta uchib borishiga to'g'ri keladi.
3. Urg'ochi suvarak bir yil davomida 2 milliondan ziyod tuxum qo'yishi mumkin. Bundan tashqari suvarak to'qqiz kun boshsiz yashay oladi.
4. Bir yil davomida o'rgimchaklar iste'mol qiladigan barcha Hasharotlarning og'irligi er yuzida yashovchi barcha insonlar vaznidan og'ir bo'ladi.
5. O'rgimchaklarning 35 mingga yaqin turi ma'lum va hamma vaqt yangi-yangi turlari kashf qilinayapti.
6. Qor chayonlarining qonida antifriz mavjud, shuning uchun ular tselsiy bo'yicha minus 6 gradus haroratda ham yashay oladilar. Biroq bunday chayonni qo'lga olsangiz o'lib qoladi.
7. Urg'ochi uxovoyorkada ikkita penis bo'lib, har birining uzunligi uning o'zining bo'yidan ortiqroq. Bu organlar juda mo'rt bo'lib, tez sinadi. Shuning uchun Hasharotlar zahira organlar bilan tug'iladilar.
8. Chumolilar hech qachon uxlamaydi. Er yuzida qancha turda qush bo'lsa (9000), chumolilarning ham deyarli shuncha (8800) turi mavjud.
9. Kapalaklar ta'mni orqa qismi yordamida sezadi. qanotlarining rangi nurni akslantiruvchi pardalar yordamida hosil bo'ladi.
10. Aborigenlar g'o'la lichinkalarini qaynoq suvga bulab «vitchetti» tayyorlaydilar. Shu tariqa ularning ta'mi quymoqnika o'xshab qoladi.

11. Asalarilarning beshta ko`zi mavjud. Uchtasi boshning yuqori qismida, ikkitasi esa oldinda bo`ladi. Asalari qanotlarini bir daqiqada 11.400 marta qoqadiki, bu o`ziga xos g`o`ng`illashga o`xshab eshitiladi.

12. Hozir qo`ng`izlarning 400 mingga yaqin turi ma'lum. Eng yirik titan qo`ng`izning bo`yi 17 sm.ga etishi mumkin.

13. Ninachi eng tez uchuvchi Hasharot hisoblanadi. Uning harakatining tezligi 57 km/soatga etadi.

14. «Vitchetti» lichinkalarini tiriklay iste'mol qilgan yaxshi. Katta yoshli kishi o`nta yirik lichinkaga to`yadi.

15. Hasharotlar oqsil, uglevodlar, vitamin va minerallarga boy taom hisoblanadi. Tailandda ular delikates taom sanaladi, u erda qovurilgan qora chigirtka va chigirtkalarga talab katta.

16. Amarobia o`rgimchaklarining bolalari tug`ilganlaridan so`ng o`z onalarini eyishadi. Ba'zi urg`ochi o`rgimchaklar juftlashish jarayonidayoq erkak o`rgimchaklarni eyishni boshlashadi. Shu tariqa marhum ota o`z avlodi uchun oziq hisoblanadi.

17. Qora chigirtkalarining quloqlari oldingi oyoqlarida joylashgan. Bundan tashqari ularga qarab haroratni bilish mumkin: buning uchun bir daqiqada necha marta chirillashini aniqlash, uni ikkiga bo`lish, so`ng chiqqan songa to`qqizni qo`shish va natijani ikkiga bo`lish kerak. Hosil bo`lgan son haroratni tselsiy graduslarida ko`rsatadi.

18. Barcha Hasharotlarning taxminan uchdan bir qismi yirtqich hisoblanadi va ularning aksariyati o`limtik va qoldiq ovqatni emay, o`zi ov qiladi.

19. Beshiktebratar o`z tanasining uzunligidan 40 baravar uzoqroqqa sakrashi mumkin, burgalar esa 130 barobar.

20. Sayyoramizning inson o`zlashtirgan har bir kvadrat milida 26 mlrd.dan ziyod Hasharot yashaydi. Olimlarning fikriga ko`ra, yana fanga noma'lum Hasharotlarning 5-10 mln.ta turi mavjud.

21. Mayda chaquvchi Hasharotlar, oqboshlar, qanotlarini bir daqiqada 62.760 marta qoqishadi, ko`z ilg`amas tezlik!

22. «Lolita» muallifi Vladimir Nabokov bir necha kapalak turlarini kashf qilgan. Ulardan biri yozuvchi sharafiga uning nomi bilan atalgan.

23. Uy pashshalari odatda o'zlari paydo bo'lgan joy yaqinida yashashadi, biroq ma'lum bo'lishicha ular shamol ta'sirida 45 km. uzoqlikkacha «ko'chib» borishlari mumkin ekan.

24. Dunyodagi eng yirik tungi kapalak Attacus Atlas. qanotlari yoyilganda 30 sm.ga etishi bois ko'pincha ko'rganlar uni qush deb o'ylashadi.

25. Cho'l chigirtkasining galasida 50 mlrd. Hasharot bo'lishi mumkin. har bir chigirtka o'z vazniga teng ovqatni eya oladi. Mazkur gala bir kunda Nyu-York aholisi eydigan ovqatdan to'rt baravar ko'proq ovqatni paqqos tushiradi.

INSON –TILSIMI **G'aroyib olam**

— O'rta yoshdagi odam har soatda o'z terisining 600 ming zarrasini yo'qotib turadi, bir yilda esa bu ko'rsatkich 675 grammni tashkil etadi. Agar kishi o'rtacha 70 yil umr ko'rsa, bu davrda 48 kilo teri yo'qotadi, ya'ni tana og'irligining 70 foizini.
— Erkak kishi umr bo'yi 22 tonna ovqat va 33 000 litr turli suyuqlik iste'mol qilsa, ayollar bu borada ancha “ochko'zroq” ekan, ya'ni 25 tonna ovqat va 37 000 litr suyuqlikni paqqos tushirisharkan.

— Boshdan bir kunda 40-60 tagacha soch to'kiladi, umr bo'yi esa 1,5 milliondan ortiq soch tolasini tushadi. Bu me'yoriy hol.

— Tilimiz juda kichik-uzunligi 9, eni esa 5 santimetr, og'irligi esa 50 gramm. Biroq shu kichik bir “bifshetk” da 17 mushak bo'lib, aql bovar qilmas darajada turlicha harakatlana oladi.

— Ayollarda 1 millionta soch tolasini bo'lsa, erkaklarda 3 milliontagacha bor. Umr boyi sataroshlar olgan sochini uzunligini hisoblasak, u 9-10 metrni tashkil etadi.

— Inson miyyasi 10 milliard asab hujayralaridan iborat va u bir kunda 86 million bit axborotni eslab qolishga qodir. Umr oxirigacha esa bu son 100 trillion bitgacha yetadi.

— Kishi umrida nafas olib chiqargan havosi 499 kub yard (1 kub yard-0,76 kub metr)ni tashkil etadi. Kuchli nafas chiqargan paytda o'pkadan chiqqan havoning tezligi soatiga 160 kilometrgacha yetadi.

— Yuragimizni og'irligi 300 gramlik tosh bosadi holos. Biroq kishi umrida o'rtacha hisoblaganda 3 milliardgacha yurak urishi kuzatilgan.

— Hozirgacha o'rganilgan omillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, odam miyyasining neytron tarmoqlari yer sharidagi telefon tarmoqlaridan 1400 marta murakkabdir.

— Erkaklar umri davomida 3,9 tonna, ayollar 4,3 tonna chiqindi chiqaradi.

— Odam qorong'u joyga kirgach, ko'zning nurga nisbatan sezuvchanligi 1 daqiqada 10 baravar, 20 daqiqa 6000 marta, 40 daqiqadan so'ng esa 25000 baravarga ortadi.

— Inson miyyasida har soniyada 100 000 yaqin kimyoviy reaksiya sodir bo'ladi.

— Miyyamiz ko'z, quloq va boshqa sezgi organlari qabul qilgan axborotning faqat 10 foizinigina qayta ishlaydi, qolgan 90 foizini tashlab yuboradi.

— Odamda xid sezuvchi organlarning umumiy maydoni atigi 0,7 kvadrat dyum(1 kvadrat dyum-6,5 kvadrat santimetr ga teng)ni tashkil etadi. Bunday organlar itda - 100

kvadrat dyum, akulalarda - 24 kvadrat dyum, quyonlarda esa butun tanasi boylab yoyilgandir.

— Ko'z korgan tasvir atigi 0,05 soniyada miyyada akslanadi.

— Yurak shunchalar ko'p energiya sarflaydiki, uning bir kunlik energiyasi hisobiga 900 kilogramm yukni 14 metr balandlikka ko'tarib chiqish mumkin. Yurakning 50 yil davomida sarflagan energiyasi esa 18 ming tonna yukni 227 kilometr yuqoriga ko'tarib chiqish bilan baravar.

— Inson ko'zlari sezgirki, tunda tog' cho'qqisida turib sakson kilometr uzoqlikda yongan gugurt cho'pi shulasini ilg'ay oladi.

— Yotganimizda nafas olish uchun 1 daqiqada 8 kvart (1 kvart - 1,14 litr) havo etarli ekan. Agar o'tirgan bo'lsangiz 16 kvart, yurayotganda esa 24 kvart havo kerak bo'ladi.

— Tanamizning 1 kvadrat dyuymlik terisini 345 ta ter chiqaruvchi bezlar, 26 metr asab tolalarining uchlari, 65 mingta soch qopchalari, 75 ta bezlari, 19 fut qon tomirlari joylashgan.

— Odam uhlamasdan 10 kecha-kunduz, ovqatlanmasdan esa 1 hafta yashashi mumkin.

— Miya neyronlarining eng yuqori faoliyat (tezligi) soatiga 400 kilometrdir.

ENG QULAY VAQT

G'aroyib olam

Tugilish. Dunyo akusherlarinig tasdiqlashlaricha, chaqaloqlarning ko'pchiligi tungi soat 12 dan 4 gacha bo'lgan vaqtda tug'ilarkan.

Qon bosimi. Tungi soat 4 bilan 5 oralig'ida kishi qon tomirlarida eng past bosim bo'larkan. Shuning uchun ham bu vaqtda uyqudan uyg'onish juda qiyin kechadi.

Hirs. Qonda jinsiy garmonlar asosan ertalabki soat 8 lar atrofida ko'payarkan. Shu vajdan ishqiy lazzatning ertalabkisi kishi ruhiyatiga yengillik va ko'tarinkilik baxsh etadi.

Yuvinish. Ertalabki soat 8 da sovuq suvga cho'milish juda foydalidir. Chunki shu paytda organizmda himoya kuchlari faollashgan bo'ladi.

Ovqatlanish. Ertalabki soat 8 dagi nonushta qomatingizga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, negaki, bu paytda uglevodlar yog'ga emas, balki energiyaga aylanadi. Lekin kechqurungi soat 8 da tanovvul qilingan ovqat esa "figurangizni buzishi" mumkin, chunki u jismingizda yog'ga aylanadi.

Davolanish. Tibbiy muolajalar uchun, ya'ni ukil va dori-darmon qabul qilish uchun eng yaxshi vaqt ertalabki saot 9 lar oralig'idir. Bu paytda teri o'ta sezgir bo'ladi. Biroq ehtiyoj sezilsa, tish doktoriga yaxshisi tushdan keyin uchrashganingiz ma'qul. Negaki, shu paytda bormashina og'riqlariga organizm ko'pam "jizzakilik" qilavermaydi.

Ijod uchun eng qulay vaqt ertalabki soat 10 va tush payti. Sabab: miya tiniq va faollashgan bo'ladi.

Jismoniy harakat uchun esa ma'qul soat 13 dir. Chunki shu paytda muskullarning tarangligi va quvvatliligi ortadi.

Hazm. Soat 13 da oshqozon eng k'op suyuqlik ishlab chiqaradi, hatto bu payta ovqatlanmasangiz ham.

Uyqu. Amerikalik mutaxasislarning aytishlaricha, eng shirin uyqu kunduzgi 14 dagisidir. Bu paytdagi uyqu organizmga tungi uyqudan ko'ra ko'proq xush yoqadi.

Soch va tirnoqlar. Soat 16 va 18 lar atrofida soch va tinoqlarning o'sishi tezlashadi.

Ishtaha va musiqa. Soat 17 da organizm uchun eng "buyuk" ishtaha qo'zg'alsa 19 da esa musiqa tinglash uchun ko'tarinki ruh paydo bo'ladi.

Ichkilik. Jigar o'z faoliyati davomida soat 18 va 20 lar oralig'ida spirtli ichimliklar kuchini oson "kesadi", ammo tun yarmidan keyin ichilgan ichkilik organizmni "ko'tarib" tashlaydi.

Choy. Soat 18 dan 20 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida ichilgan choy organizmga juda yaxshi singadi.

Surtmalar. Yuzga surtma surish uchun eng qulay vaqt bu 18 bilan 20 lar oralig'idir. Chunki aynan shu paytda teri surtmalar uchun o'ta sezgir bo'ladi.

Muloqot. Do'stona muloqot uchun yaxshi soat 18 va 20 oralig'idir. Odamzodda negadir shu payt o'zini yolg'izdek his etish ruhiyati paydo bo'ladi.

KOINOT RAQAMLARDA

1. Oyning Erdan ko`rinib turadigan eng ulkan krateri Beyli deb ataladi. Uning maydoni taxminan 26,000 kvadrat milga teng.
2. Erga har kuni 27 tonna kosmik chang yoqiladi. Bir yilda 10 ming tonnadan ortiq chang Erga tushadi.
3. Agar o`rgimchak ini tolasini Sentavr yulduzlar turkumidagi eng yaqin yulduzgacha tortib chiqilsa, tolaning og`irligi besh yuz ming tonnani tashkid etgan bo`lardi.
4. Galaktikamizda har yili qirqqa yaqin yulduz paydo bo`ladi.
5. Oyning diametri 3 476 kilometr ga teng.
6. Quyosh nuri Erga 8,5 daqiqada etib keladi.
7. Agar bir choy qoshiqni neytron yulduzlarini tashkil etuvchi modda bilan to`ldirilsa, uning og`irligi taxminan 110 million tonnaga teng bo`lardi!
8. Dunyoda eng ko`p xususiy meteoritlar kolleksiyasi amerikalik Robert Xaagga tegishli - u ikki tonna samoviy jismlarni yig`gan. Xaag meteorit yig`ishni 12 yoshida boshlagan ekan.

9. Kaliforniyaning Palomar tog'idagi teleskop 7,038, 835,200, 000,000, 000,000 mil masofadagi jismni kuzatishi mumkin..
- 10.Quyosh tizimidagi barcha sayyoralar Yupiter sayyorasining ichiga joylashishi mumkin.
- 11.Oddiy pochta markasi bilan teng bo'lgan quyosh parchasi 1,500,000 dona sham yonganchalik yorug'likni bera oladi.
- 12.Erda og'irligi yuz kilogrammga teng jismning o'irligi Marsda 38 kiloga teng bo'ladi.
- 13.Quyosh energiyasining 19 foizi atmosferaga singib ketadi, 47 foizi Erga tushadi, 34 foizi esa koinotga qaytadi.
- 14.Merkuriy sayyorasidagi bir kun Erdagi ikki yildan uzunroq. Merkuriy o'z o'qi atrofida juda skein aylanadi, quyosh atrofini esa 88 kundan ozroq vaqt ichida aylanib o'tadi.

HAYRATOMUZ DALILLAR

- Dengiz yulduzi oshqozonini tashqariga chiqarishi mumkin.
- Eng uzoq vaqt suvsiz yura oladigan jonzor - kalamush.
- Begemotlar suv ostida dunyoga keladi.
- Orangutanglar yuzaga kelayotgan xavf haqida oldindan xabar beradi.
- Yumronqoziq bir kechada 76 metr tunnel qazishi mumkin.
- Chuvalchangning tishlari 25 mingga yaqin xolos.
- Nil daryosidagi timsohlar tufayli har yili 1000 dan ortiq inson halok bo'ladi.
- Tuya?ushning tuxumini qaynatish uchun 4 soat vaqt kerak bo'ladi.
- Sherlar galasida o'ljani 90%ini urg'ochi sherlar topib keladi.
- Yalqov (hayvon) umrining 75%ini uyquda o'tkazadi.
- Kolibri (qush) yura olmaydi
- Avstraliyaga kelgan yevropaliklar mahalliy qabilalardan "Mana bu sakrab-sakrab yuruvchi g'alati hayvon nima?" deb so'rashgan, ular esa "Kenguru" deya javob berishgan. Bu so'z "Tushunmaymiz", degan ma'noni anglatadi.
- O'txo'r hayvondan yirtqich hayvonni farqlashning eng oson yo'li: yirtqichlarda ko'zlar o'z qurbonini ko'rish uchun yuzning old tomonida joylashgan bo'ladi, o'txo'rlarda esa yuzining ikki chetida - o'z dushmanlarini ko'rish uchun.
- Ko'rshapalak - ucha oladigan yagona sut emizuvchi jonzor
- Yerdagi yashagan barcha hayvonlarning 99%i qirilib ketgan.
- Asalari 1 kilogramm asal yig'ish uchun 2 milliondan ortiq gulga qo'nishi kerak
- Seks bilan lazzatlanish maqsadida shug'ullanadigan ikkita jonzor bor - odam va delfin. qolgan jonzorlar bu ishni faqat nasl qoldirish uchun qiladi.
- So'nggi 4000 yil ichida birorta ham hayvon xonakilashtirilmadi.
- Pingvinlar 1,5 metrga sakray oladi.
- Shimpanzalar o'zini ko'zguda taniy oladigan yagona hayvon hisoblanadi.

- Afrikadagi ba'zi qabilalarning tilida "orangutang" so'zi "junglidan kelgan odam" ma'nosini beradi.
- Odam va fillar - boshi bilan tura oladigan yagona sut emizuvchilardir.
- Timsohlar suv ostiga chuqurroq sho'ng'ish uchun og'ir toshlarni yutib yuboradi.
- Qutb ayig'lari 40 km/soat tezlikda yugura oladi
- Dastlab Avstraliyaning 50 tsentlik tangasi 2 dollarlik kumushdan quyilgan
- Angliya kutubxonalarida eng ko'p o'g'irlanadigan kitob - "Ginnesning rekordlari kitobi". Bu dalil rekordlar kitobiga kirgan.
- Monako milliy orkestri bu davlatning armiyasidan kattaroq.
- Saxroi Kabirda bir martagina - 1978 yilning 18 fevralida qor yoqqan
- 1983 yil davomida birorta ham odam tug'ilmagan davlat - Vatikan
- Nil daryosi ikki marta - IX va XI asrlarda muzlagan.
- Sharqning qadimiy davlatlarida qitiqlash qonun bilan taqiqlab qo'yilgan
- Las-Vegasning kazinolarida hech qaerga soat qo'yilmaydi
- Eskimoslar tilida "qor" so'zini ifodalash uchun 20 dan ortiq so'z bor
- Italiyada "Barbi" qo'g'irchoqlari Kanadadagi tub kanadaliklar sonidan ko'pro?
- Fransiya qonunlariga ko'ra, insoniy yuzga ega bo'lmagan (masalan, o'zga sayyoralik ko'rinishida) qo'g'ircho'larni sotish taqiqlanadi
- Kanada so'nggi 5 yil ichida 4 marta BMT tomonidan yashash uchun eng zo'r mamlakat deb e'lon qilindi
- Rossiyada aroq XIV asrda paydo bo'lgan. Dastlab u dori sifatida tomchilab sotilgan.
- Mushukning bosh suyagi faqat tepa va pastga harakatlanadi. Itlarning bosh suyagi esa to'rt tarafga harakatlana oladi.
- Statistika ko'ra, uylangan erkaklar 8 yil ko'proq umr ko'radi, turmushga chiqqan ayollar esa 8 yil kamroq.
- Erkaklarning miyasi 30 yoshdan so'ng quriy boshlaydi va 60 yoshlarga borganda uning 30%i qurib qoladi. Ayollar organizmida bu jarayon kuzatilmaydi.
- Urg'ochi gepardlar kiyikning bolasini tutib kelib, bolalariga ov qilishni o'rgatishda ko'rgazmali qurol sifatida foydalanadi.
- Urg'ochi fillar yangi tug'ilgan "chaqaloq"ni 2 yil ko'tarib yuradi, keyin esa yana 2 yil o'z suti bilan boqadi.
- Jirafa tug'ilgan zahoti hayotdan oladigan ilk taassuroti - 2 metr balandlikdan boshi bilan qulash.
- Afrika tuyaqushining 15 santimetrlik tuxumi 1,8 kilogramm keladi.
- Tinch okeanidagi Mariana botig'iga Everest cho'qqisi bimalol "siqadi".
- Aleksandr Bell tomonidan 1876 yilda ixtiro qilingan birinchi telefonning qo'ng'irog'i bo'lmagan. Chaqiruv trubka orqali hushtak chalish orqali amalga oshirilgan.
- Bridj - karta bilan o'ynaladigan yagona olimpiya sport turidir.
- Mashhur amerikalik fizioximik Lyuis Gilbert Nyuton 30 martadan ziyod Nobel mukofoti sovrindorligiga nomzod bo'lgan, ammo biror marta ham bu mukofotni ololmagan.
- Gruziya Respublikasi tarkibidagi Abxaziya Respublikasining nomi abxazcha "apsni" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida bu so'z "qalb o'lkasi" degan ma'noni bildiradi.
- Avstraliya mamlakatini hech ikkilanmasdan akasiyalar o'lkasi deb atash ham mumkin. Chunki bu daraxtning 500 dan ortiq turi ushbu mamlakatda o'sadi. 20

mingdan ziyod o'simlik turiga ega bo'lgan Avstraliyaning "yashil qit'a" deb nomlanishini esa ko'pchilik bilsa kerak.

- Ukraina hudud jihatidan Yevropada eng yirik davlatdir. Uning maydoni -603700 km².

- Mongoliya davlatining hududi - 1566000km². Qizig'i shundaki, bu hududning 80% ini o'tloq va yaylovlar egallagan.

- Bugungi kunda jahonda eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri bo'lgan avia so'ziga "qush" degan ma'noni anglatadigan lotincha "avis" so'zi asos bo'lgan.

- Qadimgi Makedoniya davlatida ellinizm bo'lganmi-yo'qmi, degan masala dunyo tarixchilari orasida hamon davom etmoqda.

- Yerning ilk sun'iy yo'ldoshini koinotga olib chiqqan "Sputnik" tashuvchisi aslida ballistik raketa olib yuruvchi 8K71(R-7) quroli sifatida yaratilgan edi.

- Vena qon tomirlarini emlash XVII asr o'rtalaridan boshlangan bo'lishiga qaramasdan, shpris Charlz Gabriel Pravaz va Aleksandr Vud tomonidan 1853 yilda, ya'ni ikki asr keyin ixtiro qilingan.

- Tender - ichida suv va yonilg'i saqlanadigan va paravozga ulanadigan vagonning nomi. Agar suv bilan yonilg'i parovozning o'zida sa'lansa, u "tank-parovoz" deb ataladi.

- SSSR va Finlyandiya o'rtasida 1941-1944 yillarda bo'lib o'tgan urushni fin tarixchilari "Davomli urush" deb atashgan.

- Amerikalik buyuk fizik-kimyogar Lyuis Gilbert Nyuton o'ttiz martadan ko'proq Nobel mukofotiga tavsiya etilgan, ammo biror marta ham sovrindor bo'lmagan.

- Dunyodagi eng uzun osma ko'priki bo'lmish Akasi-Kaykyo (Yaponiya) troslari bir-biriga ulansa, Yer sharini etti marta aylantirib chiqish mumkin.

- Yaqinda arxeologlar qadimgi Troya hududidan har biri turlicha davrga xos yettita qishloqni topishdi.

- "Quvnatuvchi gaz" nomini olgan diazot oksidi (N₂O) tibbiyotda anesteziyani bosishda tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Avtomobilsozlikda esa bu modda ichki yonuv dvigatelining texnik quvvatini oshirish uchun ishlatiladi.

- Folksvagen-qo'ng'iz avtomodeli Ikkinchi jahon urushi tugaganidan 27 yil keyingina Ford Model T markasining rekordini sindirishga muvaffaq bo'ldi va dunyoda eng ko'p miqdorda sotilgan avtomobilga aylandi.

- Butun dunyo banklaridagi oltin zahiralarini (32 ming tonna) bir joyga to'plsak, bor-yo'g'i 12 metrlik kub hosil bo'ladi, xolos.

- Kamalak yerdan turib qaraganda yoy shaklida ko'rinadi. Samolyotdan esa butun doira bo'lib ham ko'inishi mumkin.

- Ginnesning rekordlar kitobi ilk bor 1955 yil sotuvga chiqarilgan.

- Pomirning eng yuqori nuqtasi bo'lgan Kommunizm cho'qisi (7495 metr) 1932 yilga qadar Ismoil Somoniy deb atalgan, 1932 yildan 1962 yilgacha esa uning nomi "Stalin cho'qqisi" bo'lgan.

- "Oltin darvoza" ko'prigi qurilganidan buyon o'tgan oltmish yildan ortiqroq vaqt ichida undan o'zini suvga tashlab mingdan ortiq inson halok bo'ldi. Bu yiliga 17 ta, ya'ni har uch haftada bittadan suiqasd, deganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Chelovek i priroda” jurnali Moskva 1984-yil.
2. “Ovqatlanish va salomatlik” T.Hudoyshukurov, M.Karimov
3. “Sut va salomatlik” N.Panfilova.
4. “Bolalar entsiklopediyasi”
5. “Sabzavot, rezavor mevalar, ziravorlik hosiylati” M.Nabiyev
6. ziyouz.uz
7. ziyone.uz
8. biolog.zn.uz
9. <http://www.wiley.com>
10. <http://www.cellsalive.com>
11. <http://www.tvdsb.on.ca>
12. <http://ghr.nlm.nih.gov/chromosomes>
13. <http://www.biologie.uni-hamburg.de>
14. <http://www.emunix.emich.edu>
15. <http://www.johnkyrk.com>
16. <http://www.youtube.com>
17. <http://biology.clc.uc.edu>
18. <http://www.funtrivia.com>

MUNDARIJA

1. O'simliklar olami bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar.....	4
2. Hayvonot olami bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar.....	7
3. Tarixiy ma'lumotlar.....	10
4. Oqsil, yog' va uglevodlarga oid ma'lumotlar.....	13
5. Jadvallar.	14
6. Zakovat intellektual o'yini savollari.....	16
7. Hasharotlar hayotidan 25 ajabtovur fakt.....	19
8. Inson tilsimi – g'aroyib olam.....	21
9. Eng qulay vaqt – g'aroyib olam.....	22
10.Koinot raqamlarda.....	23
11.Hayratomuz dalillar.....	24